

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/27.02.2020.F.72.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

ANVAROVA LOBARXON SHERZOD QIZI

**MEHNAT SAMARADORLIGI – JAMIYAT IQTISODIY
TARAQQIYOTI OMILI**

09.00.04 – Ijtimoiy falsafa

**FALSAFA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2024

UO‘K: 101.1:316:331:330.34(575.1)

**Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по философским наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on
philosophical sciences**

Anvarova Lobarxon Sherzod qizi

Mehnat samaradorligi – jamiyat iqtisodiy taraqqiyoti omili.....5

Анварова Лобархон Шерзод кизи

Эффективность труда – фактор экономического развития общества.....23

Anvarova Lobarxon Sherzod kizi

Labor efficiency as a factor of the economic development of society.....45

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works50

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/27.02.2020.F.72.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

ANVAROVA LOBARXON SHERZOD QIZI

**MEHNAT SAMARADORLIGI – JAMIYAT IQTISODIY
TARAQQIYOTI OMILI**

09.00.04 – Ijtimoiy falsafa

**Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/Fal962 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Qarshi davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar

Bekmurodova Gulshod Xaitovna
falsafa fanlari doktori, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Xajiyeva Maqsuda Sultanovna
falsafa fanlari doktori, professor

Negmatova Shaxzoda Shuxratovna
falsafa fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Buxoro muhandislik-texnologiya instituti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/27.02.2020.F.72.08 raqamli ilmiy kengashning 2024 yil "20" dekabr soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200114, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (65) 221-29-14; faks: (65) 221-57-27, e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz)

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (0/550 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 200114, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (65) 221-25-87.)

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil "4" dekabr kuni tarqatildi.

(2024 yil "4" dekabr dagi 25 raqamli reyestr bayonnomasi.)



Namozov B.B.

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi,
falsafa fanlari doktori, professor

Sharipov A.Z.

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash kotibi,
falsafa fanlari doktori, professor

Safarova N.O.

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,
falsafa fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonning qariyb barcha mintaq va mamlakatlarida odamlarning ehtiyojlari muttasil evrilib va o'sib borayotganligi hamda resurslar hajmining jadal kamayib borayotganligi o'rtasidagi nomutanosibliklar jamiyat ravnaqiga jiddiy soya solib, ziddiyatni kamroq resurs evaziga ko'proq mahsulot yaratishni yo'lga qo'yish orqaligina bartaraf qilish zaruratini namoyon etmoqda. Bu jarayonda mehnat samaradorligini ishchi kuchi, resurslar va vaqtinchalik sarf-xarajatlar orqali ko'zlangan natijalarga erishish, bir xil resurslar yordamida ko'proq mahsulot yoki xizmat ishlab chiqarish, texnologik yangilanishlar, innovatsion bilim, malaka va ko'nikmalarni oshirish orqali kuchaytirish iqtisodiyotning rivojlanishiga olib keladi, inson turmush darajasini yaxshilaydi, iqtisodiy ravnaq sur'atlarini jadallashtirish imkonini beradi. Shuning uchun mehnat samaradorligining ijtimoiy manfaatlarga yo'nalganligi va jamiyat taraqqiyotiga xizmat qilishi darajasi, ijtimoiy ehtiyojlarni qondirishdagi samarasini ta'minlashning hamda uni ro'yobga chiqarish yo'llarini aniqlashning ijtimoiy-falsafiy omillarini asoslash dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jahon ilm-fani va yetakchi ilmiy markazlarida mehnatning mahsuldorligi va natijadorligini oshirishga xizmat qiladigan omillarni aniqlash, samaradorligini o'lchash mezonlari, ishchilarning turmush darajasini yaxshilash va ishlab chiqarishda yuqori daromad olish usullariga oid amaliy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu boradagi turli fanlar va fanlararo miqyosda amalga oshirilayotgan tadqiqotlarda mehnat unumini oshirish imkonini beradigan tavsiyalarni shakllantirishga, mahsulotlarni yaratishda ishlatiladigan resurslarni ehtiyotlash yo'llarini aniqlashga, ish vaqtini oqilona o'tkazish uslublarini takomillashtirishga diqqat qaratilmoqda. Shu sababli ilgari surilayotgan konsepsiyalar, dasturlar, uslublar tahlilini amalga oshirish, ishchi kuchi miqdorini maqbullashtirishi va sifatini yaxshilash, tabiiy resurslarning oqilona sarflanishini ta'minlash, kishilarning mehnatdan manfaatdorligini oshirish hamda mehnat jarayonini ilmiy asosda tadqiq etish zarurati ortib bormoqda.

Mamlakatimizda ta'lim, ilm-fan va ishlab chiqarishni integratsiya qilishning ta'sirchan mexanizmlarini yaratish, mehnat va ijtimoiy munosabatlar sohasida xalqaro talablar va standartlarga muvofiq malakali kadrlarni tayyorlash, xalqaro va milliy mehnat standartlarini joriy etishga qaratilgan islohotlar amalga oshirilmoqda. "... dunyodagi har bir davlatning milliy taraqqiyotida, avvalo, inson mehnati va salohiyati beqiyos ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham respublikamizda mehnat munosabatlarini tubdan isloh qilish, fuqarolarimizning mehnat sohasidagi konstitutsiyaviy huquqlarini ro'yobga chiqarish, bandlik masalasini hal etish, kambag'allikni qisqartirishga katta e'tibor berilmoqda"¹. Shuning uchun mehnat faoliyatining ma'naviy qadriyatlarga aloqadorligi, insonning ish jarayonidagi mas'uliyat, halollik, o'z ishiga sadoqat va boshqalar bilan hamkorlik qilish qobiliyatini rivojlantirishning ijtimoiy-falsafiy omillarini ochib berish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

¹ Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik. - Toshkent: "O'zbekiston", 2023. - B.121

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2017-yil 24-maydagi PF-5052-son “Bandlik sohasida davlat siyosatini yanada takomillashtirish va mehnat organlari faoliyati samaradorligini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 6-iyuldagi PF-165-son “2022-2026 yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” farmonlari, 2019-yil 9-dekabrda PQ-4546-son “Byurokratik to‘siqlarni yanada qisqartirish hamda davlat organlari va tashkilotlari faoliyatiga zamonaviy boshqaruv tamoyillarini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-son “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2021-yil 23-avgustdagi PQ-5227-son “Mehnat va ijtimoiy munosabatlar akademiyasini tashkil etish to‘g‘risida”, 2018-yil 20-avgustdagi PQ-3913-son “Mehnat organlari tuzilmasini takomillashtirish va fuqarolarning mehnat huquqlarini himoya qilish va mehnatni muhofaza qilish tizimini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarorlari va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2021-yil 18-yanvardagi 23-son “O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2019-yil 7-sentabrdagi 743-son “Mehnat bozorida mehnat munosabatlarini tartibga solishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2017-yil 10-iyuldagi 482-son “Mehnat organlari faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarorlari hamda sohaga oid boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” nomli ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Mehnat samaradorligini oshirish masalalari industrial ishlab chiqarish shakllana boshlagan davrdanoq faol o‘rganib kelinadi. Jumladan, xorijda S.Gloker va P.Vegmyuller mehnat samaradorligi bilan ish vaqtining oqilona sarflanishi o‘rtasidagi aloqadorlikni ochib berishga e‘tiborni qaratadi. M.Jons va R.Cheyne to‘rt kunlik ish haftasi tatbiq etilishining mehnat samarasiga ijobiy ta‘sirini asoslashga intiladi. E.Maykls, X.Xendfild-Djons, B.Akselrod, A.Savanyavichene, V.Vilchyauskayte esa mehnat samaradorligini oshirish uchun qobiliyatli xodimlar kamol toptirilmog‘i va rag‘batlantirilmog‘i lozimligini tavsiflaydilar².

² Qarang: Chainey R. It's time to switch to a four-day working week, say these two Davos experts. World Economic Forum.// weforum.org, 2019, January, 25; Glocker C., Wegmueller P. International evidence of time-variation in trend labor productivity growth // Economics Letters, 2018, № 167. - P. 115-119; Jones M. Utah Abandons Four-Day Workweek, Not Savings and IT Goals.// Government Technology, 2011, September, 14; Savaneviciene A., Vilciauskaite B. Practical Application of Exclusive and Inclusive Talent Management Strategy in Companies Business Management and Education, 2017, №15(2).- P.242-260; The War for Talent, by Ed Michaels, Helen Handfield-Jones, and Beth Axelrod. Harvard Business Press, 2001.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi davlatlarida tadqiqotchilarning e'tiborini ko'proq yangi iqtisodiy shart-sharoitlarda mehnat samaradorligi darajasini aniqlash masalalariga qaratilgan. I.M.Aliyev, N.A.Gorelov, L.O.Ilina mavzuning ushbu aspektini mehnat iqtisodiyoti kontekstida tahlil qiladilar. X.Y.Galiullin, G.P.Ermakov, M.V.Simonova mehnat samaradorligini aniqlash metodologiyasini ishlab chiqishga urinadilar. E.V.Starkova va S.V.Veretexina esa mehnat samaradorligining ijtimoiy-iqtisodiy modelini tavsiflab beradilar³.

O'zbekistonda ham mehnat samaradorligi bilan bog'liq ilmiy masalalar tadqiqotchilar e'tiboridan chetda qolgani yo'q. Mamlakat mutaxassislari o'z ilmiy ishlarida bozor iqtisodiyoti sharoitida mehnat samaradorligi darajasi tubdan o'zgarganini, yangi iqtisodiy voqelik uni oshirishning sifatan o'zgacha yo'llarini tatbiq etishni taqozo qilayotganini asoslab beradilar. Buni, masalan, Q.H.Abdurahmonov, A.J.Avazov, S.Xolmuratovlarning ilmiy ishlarida ko'rishimiz mumkin⁴. Masalan, G.Bekmurodova samaradorlikni tushiruvchi destruktiv jarayonlarni aniqlaydi, M.Hajieva yoshlar mehnat faoliyatining o'ziga xos jihatlarini o'rganadi, Sh.Negmatova umumsayyoraviy tendensiyalarning kishilar mehnat faoliyatiga ta'sirini o'rganadi, B.Namozov din vakillari mehnatining tarixiy aspektlarini yoritib o'tadi, N.Safarova terrorizmning sog'lom mehnat faoliyatiga ta'sirini ochib beradi, A.Sharipov mehnat jarayonining ijtimoiy ahamiyatini tavsiflaydi, G.Navro'zova va E. Zoirov alohida iqtidor sohiblari bo'lgan mutafakkirlarning mehnat faoliyatini tasvirlaydi⁵.

Mavzuga oid ilmiy ishlar badiiy adabiyotning mehnat samaradorligini tadqiq etishda muhim rol o'ynadi, albatta. Biroq faol investitsiya siyosati va modernizatsiyalash sharoitlarida yoshlar bandligini ta'minlash, mehnatning natijadorligi va samaradorligini oshirish, mehnat huquqlarini himoya qilish va mehnat muhofazasini kuchaytirishning falsafiy jihatlarini tadqiq etish zaruriyati vujudga kelmoqda. Ushbu dissertatsiya ishida mazkur zaruratni amalga oshirishga, bugungi ijtimoiy realiyalar samaradorlikning iqtisodiy ravnaqqa ta'sirini yangi pozitsiyadan tadqiqqa e'tibor qaratilgan.

³ Qarang: Алиев И.М., Горелов Н.А., Ильина Л.О. Экономика труда.- М.: Издательство Юрайт, 2013. - 671 с.; Галиуллин Х.Я., Ермаков Г.П. Методологические проблемы оценки экономической эффективности труда.// Проблемы современной экономики, 2013, №4.- 159-164-с.; Галиуллин Х.Я., Ермаков Г.П., Симонова М.В. Понятие эффективности труда.// Экономика труда, 2017, №3.- 183-196-с.; Старкова Е.В., Веретехина С.В. Социально-экономическая модель эффективности труда.// Управление персоналом и интеллектуальными ресурсами в России, 2017, №4.- 47-51-с.

⁴ Qarang: Abdurahmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti.- T.: Mehnat, 2009. 315-316-b.; Avazov A.J. Hududiy qayta ishlash sanoati korxonalarida mehnat samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar tahlili.// Iqtisod va moliya, 2020, №1.- 138-142-s.; Xolmuratov S. Mehnat samaradorligi va munosib mehnatga haq to'lashning o'zaro bog'liqligi.// ejournal.tsue.uz/index.php/archive/article/view/2323.

⁵ Qarang: Bekmurodova G.Zamonaviy ijtimoiy destruksiya va uning O'zbekistonda namoyon bo'lishi.- Qarshi: QarDU,2023; Хажиева М.С. Роль молодежи в реализации социальной активности толерантности.// Журнал научных публикаций, 2015, №2.- 30-32-с.; Хажиева М.С. Rol molodeji v realizasii sosialnoy aktivnosti tolerantnosti.// Jurnal nauchnyx publikasii, 2015, №2.- 30-32-s.; Негматова Ш.Ш., Орипов Х. Влияние глобальных кризисов на духовность человека.// Достижения науки и образования, 2018.- 33-35-с.; Nomozov B.B. Muhammad Porso tasavvufiy ta'limotining falsafiy asoslari: Fals.f.d. diss.- Samarqand: SamDU, 2021; Сафарова Н.О. Терроризм.- М.:Литрес, 2023; 2023; Sharipov A.Z. Yangi O'zbekistonda ma'naviy-mafkuraviy islohotlar transformasiyasining ijtimoiy-falsafiy tahlili: Fals.f.d. (DSc) diss. avtoref.- Buxoro: Bux DU, 2021; Navruzova G., Zoirov E. Buxoroi sharifning etti piri.- T.: Muharrir, 2018.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Qarshi davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq II band "Barkamol inson shaxsining shakllanishida ob'yektiv shart-sharoitlar va sub'yektiv omillar dialektikasi" (2020-2025 yy) tadqiqot yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi zamonaviy ijtimoiy shart-sharoitlarda mehnat samaradorligining iqtisodiy taraqqiyot sur'atiga ta'sirini aniqlash va uni optimallashtirish yo'llarini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

"mehnat samaradorligi" ning falsafiy jihatlarini va strukturaviy tuzilishini tahlil etish;

samaradorlikning iqtisodiy taraqqiyot omillarini optimallashtirishdagi imkoniyatlarini aniqlash;

mehnatning mahsuldorligi va natijadorligini o'lchovchi mezonlarni umumlashtirish, ularni zamonaviy shart-sharoitlarda qo'llash uslubiyotini tavsiflash;

O'zbekistondagi mehnatning mahsuldorligi va natijadorligiga salbiy ta'sir etayotgan omillar va muammolarni aniqlashtirish;

manfaatdorlik va ilmiylikning mehnat samaradorligini oshirishdagi ahamiyatini isbotlash hamda ularni amaliyotga tatbiq etishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot obyekti sifatida jamiyatda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlardagi mehnat jarayoni tanlangan.

Tadqiqot predmetini mehnat jarayonining mahsuldorligi va natijadorligini oshirishga qaratilgan omillarni, ularni optimallashtirish imkoniyatlarini tadqiq etish tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada analiz va sintez, kompleks yondashuv, tizimli-funksional yondashuv, kontent analiz, diaxronik talqin, dialektik, sinergetik, sotsiometrik tahlil kabi ilmiy bilish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

mehnat samaradorligining ijtimoiy manfaatlarga yo'nalganligi va jamiyat taraqqiyotiga xizmat qilishi darajasi insonning umrguzaronligi sifatini belgilashi, salohiyat va qobiliyatning rivojlanganligi, kundalik va hayotiy ehtiyojlarni qondirishga qodir iqtisodiyot, ijtimoiy manfaatlarga yo'naltirilgan mehnat va adolat va qonun ustuvorligining ta'minlanlanganligida namoyon bo'lishi hamda ijtimoiy ehtiyojlarni qondirishdagi foydaliligi va natijadorligi bilan tavsiflanishi aniqlashtirilgan;

mehnat samaradorligining iqtisodiy taraqqiyot sur'atlariga ta'siri ishchi kuchi miqdori va sifati (mehnat qobiliyati), tabiiy resurslar (qulay iqlim sharoiti va boy yer osti boyliklari), moliyaviy kapital (investitsiya, mablag' bilan taminlanganlik) innovatsion texnologiyalar (ekotejamkor ishlab chiqarish vositalari) da namoyon bo'lishi hamda ishchi kuchi miqdorini maqbullashtirishi va sifatini yaxshilash, tabiiy resurslarni oqilona sarflash, moliyaviy kapitalni ko'paytirish, innovatsion texnologiyalarni ommalashtirish mexanizmlari ochib berilgan;

mehnat samaradorligining mezonlari mehnat unumdorligi (mehnatning miqdoriy natijalari), tejamkorlik darajasi (moddiy va moliyaviy resurslarning maqbul sarfi), ish vaqtdan oqilona foydalanish holati (mehnat funksiyalarining bajarilishi sifati) bilan belgilanishi va uning ish hajmi, vaqt samaradorligi, ishchanlik darajasi kabi indikatorlari mehnat samaradorligini rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqish imkonini berishi asoslab berilgan;

mehnat samaradorligini oshirishning mehnat motivatsiyasi (inson faoliyatiga maqsad baxsh etish, faollik, tashabbuskorlikka undash, kasbiy o'sish imkoniyatlarini oshirish) kadrlar malakasi (iqtisodiy funksiyalarni optimal bajarish, fidoyilik, innovatsion texnologiyalarni qo'llash) mehnat munosabatlarining insonparvar xarakteri (teng, adolatli va maqbul mehnat muhiti, majburiy mehnatga barham berilganlik, xotirjamlik va xayrihohlik) kabi omillarining kishilarning mehnatdan manfaatdorligini oshirishda hamda mehnat jarayonini ilmiy asosda tashkil etishdagi zaruriyati falsafiy asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

jamiyatda mehnat unumdorligini oshirishga xalal berayotgan moddiy-texnik bazaning eskirganligi, ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilinishi, innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqarishga tatbiq etilmayotganligi kabi omillar xodimlar salmoqli qismining ma'lumoti va malakasi zamon talablariga moslashtirishni, mehnatga haq to'lash tizimini takomillashtirishni iqtisodiy resurslarni oqilona ishlatishni talab etayotganligi isbotlangan;

mehnat faoliyatini ilmiy yondashuv asosida tashkil etishda mehnat taqsimotini oqilona olib borish (faoliyatni turlari, kasb va mutaxassislik) mehnat sharoitlarini qulaylashtirish (mo'tadillik, xavfsizlik, ergonomika), mehnat uslublarini takomillashtirish (mehnat jarayonini optimallashtirish, autsorsing, autstaffing) normalashtirish (xronometraj, davriy kuzatuv, fiziologik sarf o'lchovi) jamoalarda xodimlarning mehnati mazmunan boyib, shaklan mukammallashtirib borishiga olib kelishi asoslangan;

mehnat samaradorligining asosiy omili bo'lgan ish vaqtini maqbul holatga keltirishda qonuniy me'yorlarga mutanosiblikni ta'minlash, adolatli ish rejimini yo'lga qo'yish, vazifalar ijrosini rejalashtirilish, ish kunini qat'iy rejalashtirilishi, dam olish vaqtini oqilona tashkil qilinishi, ish vaqtini samarali boshqarishga oid dasturlarni zamonaviy uslublarga hamohang tarzda takomillashtirish zarurati ochib berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqot jarayonida qo'llanilgan nazariy qarashlar, tadqiqot usullari va yondashuvlar rasmiy manbalar, faktlar, statistik ma'lumotlar, sotsiologik so'rov natijalariga murojaat qilingan holda olinganligi, tushuncha definitsiyasi ilmiy tadqiqot metodologiyasi va mantiq talablariga amal qilgan holda ishlab chiqilganligi, nashr etilgan ilmiy maqolalar, respublika va xalqaro konferensiyalarda sinovdan o'tkazilganligi, tadqiqot ishi natijalari bo'yicha berilgan xulosalar asosida takliflar ishlab chiqilgan bo'lib, tavsiyalar amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ilgari surilgan konseptual g'oyalardan samaradorlik mohiyatiga doir

ilmiy tasavvurlarni, mahsuldorlik va natijadorlikning ahamiyatiga doir ilmiy tadqiqot ishlarida, mehnat jarayoniga oid yaxlit konsepsiyani shakllantirishda nazariy manba sifatida shuningdek, mamlakatda faoliyat ko'rsatayotgan jamoalardagi funksional vazifalar samaradorligini oshirishga qaratilgan konseptual yondashuvni yaratishda, xodimlarning mehnat huquqlarini himoya qilish va mehnatini muhofaza qilishni kuchaytirish bo'yicha muvozanatli mehnat munosabatlarini qo'llab-quvvatlash, to'sqinlik qilayotgan muammoli masalalarga barham berishga oid islohotlarni amaliyotga tadbiiq etish jarayonlarida metodologik asos sifatida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati mehnat samaradorligini oshirishga bag'ishlangan normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqishda, mavzuga doir o'quv-uslubiy ishlarni takomillashtirishda, targ'ibot va tashviqot ishlarini amalga oshirishda, fuqarolarning mehnat huquqlari va mehnatini muhofaza qilish masalalarini tizimli asosda hal etish, xavfsiz mehnat sharoitlarini ta'minlashda, mehnat munosabatlari doirasida xodimlar va ish beruvchilarga maslahat va uslubiy yordam berishda, shu bilan birga, bandlik sohasidagi mavjud muammolarni hal etishda, bu sohadagi davlat siyosatini yanada takomillashtirish, chora-tadbirlar samaradorligini oshirish, "Falsafa", "Dinshunoslik", "Ma'naviyatshunoslik" kabi fanlarning mazmunini boyitishda, talabalar bilan uyushtiriladigan "Besh muhim tashabbus" tadbirlarini tashkil etishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Mehnat samaradorligini oshirishning ijtimoiy-falsafiy omillarini hamda uning iqtisodiy taraqqiyot sur'atiga ta'sirini optimallashtirish yo'llarini aniqlash yuzasidan amalga oshirilgan tadqiqotdan olingan ilmiy natijalar asosida:

mehnat samaradorligining ijtimoiy manfaatlarga yo'nalganligi va jamiyat taraqqiyotiga xizmat qilishi darajasi insonning umrguzaronligi sifatini belgilashi, salohiyat va qobiliyatning rivojlanganligi, kundalik va hayotiy ehtiyojlarni qondirishga qodir iqtisodiyot, ijtimoiy manfaatlarga yo'naltirilgan mehnat va adolat va qonun ustuvorligining ta'minlanlanganligida namoyon bo'lishi hamda ijtimoiy ehtiyojlarni qondirishdagi foydaliligi va natijadorligi bilan tavsiflanishiga oid nazariy mulohazalardan Qarshi davlat universitetida bajarilgan 21-05/1t-8-son "Ma'naviy yetuk yoshlar – porloq kelajak sari yo'l boshlar" (2021-2022 yy) grant loyihasi doirasida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda foydalanilgan (Qarshi davlat universitetining 2024-yil 10-iyundagi 04/1727-son ma'lumotnomasi). Natijada, mehnat samarasi iqtisodiy taraqqiyotning asosiy omillarini optimallashtiruvchi manba ekanligini isbotlashga, mehnatga oqilona munosabatni shakllantirishda nazariy-metodologik asos sifatida xizmat qilgan;

mehnat samaradorligining iqtisodiy taraqqiyot sur'atlariga ta'siri ishchi kuchi miqdori va sifati (mehnat qobiliyati), tabiiy resurslar (qulay iqlim sharoiti va boy yer osti boyliklari), moliyaviy kapital (investitsiya, mablag' bilan taminlanganlik) innovatsion texnologiyalar (ekotejamkor ishlab chiqarish vositalari) da namoyon bo'lishi hamda ishchi kuchi miqdorini maqbullashtirishi va sifatini yaxshilash, tabiiy resurslarni oqilona sarflash, moliyaviy kapitalni ko'paytirish, innovatsion texnologiyalarni ommalashtirish mexanizmlariga doir nazariy umumlashmalar va amaliy tavsiyalardan O'zbekiston Xalq demokratik partiyasining 2023-yilgi

faoliyatida, jumladan Saylovoldi dasturining “I. Kuchli ijtimoiy siyosatni amalga oshirishga intilamiz!” va “V. Biz yoshlarning sifatli ta’lim olishi tarafdorimiz” bandlarini shakllantirishda foydalanilgan. (O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasi Markaziy kengashining 2024-yil 7-iyundagi 6-225-son ma’lumotnomasi). Natijada, partiyaning mehnat samaradorligini oshirish, ish vaqtdan oqilona foydalanish hamda mehnatni ilmiy tashkil etish bilan bog‘liq chora tadbirlar majmuasini ishlab chiqishda muhim manba bo‘lib xizmat qilgan;

mehnat samaradorligining mezonlari mehnat unumdorligi (mehnatning miqdoriy natijalari), tejamkorlik darajasi (moddiy va moliyaviy resurslarning maqbul sarfi), ish vaqtdan oqilona foydalanish holati (mehnat funksiyalarining bajarilishi sifati) bilan belgilanishi va uning ish hajmi, vaqt samaradorligi, ishchanlik darajasi kabi indikatorlari mehnat samaradorligini rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqish imkonini berishiga doir yangiliklar va takliflardan Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi faoliyatida, jumladan, 2023 yil uchun chora-tadbirlar dasturining II yo‘nalishida belgilangan “Ma’naviyat-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirishga doir normativ-huquqiy bazasini takomillashtirish hamda bu boradagi tashkiliy chora-tadbirlar” 2-bandi “Yangi O‘zbekistonning “Ma’naviy taraqqiyot strategiyasi” va 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan “Yo‘l xaritasi”ni ishlab chiqish”da foydalanilgan (Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar institutining 2024-yil 1-iyuldagi 286-son ma’lumotnomasi). Natijada, yoshlarning dunyoqarashini yuksaltirish, mehnatkash avlodni tarbiyalashga, mehnat samaradorligini bugungi kun talablari bilan uyg‘unlashtirishga va ma’naviyat-ma’rifiy ishlar samaradorligiga xizmat qilgan;

mehnat samaradorligini oshirishning mehnat motivatsiyasi (inson faoliyatiga maqsad baxsh etish, faollik, tashabbuskorlikka undash, kasbiy o‘shish imkoniyatlarini oshirish) kadrlar malakasi (iqtisodiy funksiyalarni optimal bajarish, fidoyilik, innovatsion texnologiyalarni qo‘llash) mehnat munosabatlarining insonparvar xarakteri (teng, adolatli va maqbul mehnat muhiti, majburiy mehnatga barham berilganlik, xotirjamlik va xayrihohlik) kabi omillarining kishilarning mehnatdan manfaatdorligini oshirishda hamda mehnat jarayonini ilmiy asosda tashkil etishdagi zaruriyatiga oid nazariy umumlashmalar va tavsiyalardan Qashqadaryo viloyati teleradiokompaniyasi “Oltin voha” radiosining faoliyatida tadbir etilgan “Nuqtai nazar”, “Noyob meros” va boshqa radioeshittirishlari ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan. (Qashqadaryo viloyati teleradiokompaniyasining 2024 yil 19 iyundagi 17-019/209-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, efirga uzatilgan teleko‘rsatuvlar, davra suhbatlari mehnat samaradorligini oshirishga, teletomoshabinlarning mehnat samaradorligi to‘g‘risidagi qarashlarini oshirishga, ish vaqtdan unumli foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Tadqiqotning asosiy natijalari 5 ta xalqaro va 7 ta respublika ilmiy-nazariy va ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinishi. Tadqiqot mavzusi bo‘yicha jami 21 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy

natijalarini chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 6 ta ilmiy maqola (4 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiya umumiy hajmi 136 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **“Kirish”** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya bajarilgan ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi tavsiflangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob'yekti, predmeti, tadqiqotda qo'llanilgan usullar yoritilgan. Shuningdek, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan hamda dissertatsiya natijalarining joriy qilinishi, aprotatsiyasi, e'lon qilinganligi, tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **““Mehnat samaradorligi” muammosini tatqiq etishning nazariy-metodologik asoslari”** deb nomlanib, unda mehnat samaradorligining konseptual tahlili, mehnat samaradorligining iqtisodiy taraqqiyot omillarini optimallashtirishdagi ahamiyati ochib berilgan. Mehnat samaradorligining jamiyatda sodir bo'ladigan ko'plab holatlar va jarayonlar ta'sirida yuzaga kelishi, o'zgarib turishi asoslangan va iqtisodiy taraqqiyotga erishishda mehnat samaradorligi oshirish, yuqori mahsuldorlik va unumdorlikka yetaklovchi omillar, mezonlar, xususan, mehnatni oqilona tashkil etish, ishchi kuchini intellektual imkoniyatlari oshirish, munosib mehnat shart-sharoitlarini yaratish zarurati tadqiq etilgan.

Dissertatsiyada tushuncha ijtimoiy-falsafiy kontekstda ta'riflanib, *mehnat samaradorligi mehnatning ijtimoiy manfaatlariga yo'nalganligi va jamiyat taraqqiyotiga xizmat qilishi darajasini, uning ijtimoiy ehtiyojlarni qondirishdagi foydaliligi va natijadorligini ko'rsatuvchi tushuncha sifatida* qayd etilgan. Ushbu tushunchani tor va keng ma'noda qo'llash mumkin. Tor ma'noda mehnat samaradorligi deganda aniq bir korxonada yoki tashkilotdagi mehnatning jamiyat manfaatlariga mosligi va foydaliligi tushuniladi. Keng ma'noda esa mehnat samaradorligi jamiyat miqyosidagi mehnat faoliyatining ijtimoiy manfaatlariga mutanosibligini, uning ijtimoiy taraqqiyot maqsadlariga xizmat qilishi darajasini anglatadi.

Jamiyatdagi mehnat samaradorligi o'z-o'zidan vujudga kelib qoladigan ko'rsatkich emas – u muayyan ijtimoiy ehtiyoj, maqbul mehnat sharoitlari, kadrlar motivatsiyasi va malakasi, mehnatning oqilona tashkil etilganligi, mehnat munosabatlarining insonparvarligi, rahbar salohiyati va mahorati kabi ko'plab holat va jarayonlarning yaxlit hosilasidir. Ushbu holat va jarayonlar takomili pirovardida mehnat samarasining yuksalishiga va maqbul tus olishiga zamin yaratadi.

Tadqiqotda mehnat samaradorligi mazmunan dinamik xususiyatga egaligi ochib berilgan. Ayrim omillar mehnat samaradorligining misli ko'rilmagan darajada

yuksalishiga, boshqalari esa uning zaiflashishiga olib keladi. Shu boisdan jamiyatdagi, konkret korxonada yoxud tashkilotdagi mehnat samarasi muttasil ravishda o'rganib borilmog'i darkor. Bunda qator uslublar ayniqsa qo'l keladi. Masalan, jamiyatdagi mehnatning samaradorligi darajasini aniqlash uchun mamlakat iqtisodiyotiga doir statistik ma'lumotlar tahlil qilinmog'i, ilmiy manbalarda bayon etilgan mulohaza va xulosalar umumlashtirilmog'i kerak.

Dissertant fikricha, korxonada va tashkilotlardagi mehnat samarasini esa ulardagi turfa hujjatlarni tizimli tahlil qilish yordamida baholash mumkin. Mehnat samarasini iqtisodiyotning turli sektorlarida mehnat qilayotgan kishilar faoliyatini, ularning o'zaro munosabatini kuzatish yordamida ifodalasa ham bo'ladi. Alohida korxonalarda o'tkazilgan anketa so'rovlari mavzuga doir muhim ma'lumotlarni aniqlash imkonini beradi. Masalan, uning yordamida kishilarning mehnatning tashkil etilishiga munosabatini aniqlash mumkin. Bu borada xodimlarning individual intervyulari ham samara beradi. Tabiiyki, ushbu uslublar yordamidagi o'rganishlar maxsus bilim va mahoratga ega sotsiologlar tomonidan amalga oshirilishi maqsadga muvofiq.

Nihoyat, mehnat samaradorligini rahbar faoliyatini o'rganish orqali tavsiflash ham o'rinli. Jumladan, rahbarning yillik hisobotiga, u qabul qilgan qarorlar xarakteriga, tashabbuslariga qarab korxonada faoliyati qaysi mehnat vazifalarini ado etishga yo'naltirilganini aniqlasa bo'ladi. Mehnat samaradorligi amaliy sotsiologiyaning boshqa uslublarini qo'llagan holda ifodalanishi ham mumkin. Bunday ilmiy-amaliy tadqiq jamiyat miqyosida ham, alohida olingan korxonada va tashkilot, firma va kompaniya miqyosida ham mehnat samarasini uzluksiz yuksaltirish imkonini beradi.

Dissertatsiyada mehnat samaradorligi nafaqat muhim iqtisodiy vazifalarni bajarishni ta'minlovchi, balki iqtisodiy taraqqiyotning barcha omillarini optimallashtiruvchi, ushbu omillarni ijtimoiy manfaatlar sari yo'naltiruvchi manba sifatida tavsiflangan. Iqtisodiy taraqqiyot mamlakat iqtisodiyotining mahsuldorligi va samaradorligining oshishi, barqarorligi va raqobatbardoshligining mustahkamlanishi, jamiyat ehtiyojlariga mutanosibligining yuksalishi jarayonidir. U mahsulot va xizmatlar ishlab chiqarish darajasi o'sishi, investitsiyalar va infratuzilma ravnaqi, ishsizlikning kamayishi yoxud maqbul tus olishi, pirovardida esa aholi turmush darajasining yaxshilanishi bilan tavsiflanadi.

Iqtisodiy taraqqiyotga eltuvchi omillar talaygina. Bugungi kunda olimlar iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlashning asosiy omillarini ishchi kuchi miqdori va sifatini oshirish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, moliyaviy kapital bozorini rivojlantirish va innovatsion texnologiyalarni iqtisodiyotga tatbiq etish bilan bog'lamoqdalar. Xalqaro ekspertlar ham mamlakatlar iqtisodiy yuksalishi imkoniyatlarini baholashda aynan ana shu omillarga tayanmoqdalar. Shu boisdan xorijda ham, O'zbekistonda ham mazkur omillarni yuksaltirish va mustahkamlashga e'tibor oshmoqda. Ko'plab davlatlar ushbu vazifalarni bajarishni o'z iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylantirmoqda, ularga e'tiborni muttasil kuchaytirib bormoqda.

Biroq masalaning muhim tomonlaridan biri shundaki, mehnat samarasi iqtisodiy taraqqiyotning mazkur omillarini optimallashtiruvchi muhim manba

vazifasini o'tashga qodir. Chunki mehnat samaradorligi mamlakatdagi ishchi kuchini ijtimoiy manfaatlar sari yo'naltirish imkonini beradi. Jamiyatda, konkret korxonada va tashkilotda mehnat samaradorligini yuksaltirish orqali ishchi kuchi miqdorini maqbullashtirish, sifatini yaxshilash hamda uni jamiyat manfaatlarini sari yo'naltirish mumkin. Mehnat samaradorligining oshishi tabiiy resurslarning oqilona sarflanishini ta'minlaydi. Uni yuksaltirish orqali tabiiy resurslarni iqtisodiy taraqqiyot omiliga aylantirish mumkin bo'ladi.

Mehnat samaradorligi iqtisodiy taraqqiyotning yana bir omili – moliyaviy resurslarning maqsadga muvofiq ishlatilishiga zamin yaratadi. Uning yuksalishi moliyaviy kapitalni ko'paytirish, oqilona sarflanishini ta'minlash imkonini beradi. Mehnat samaradorligi innovatsion texnologiyalarni ommalashtirish imkonini beradi. Jamiyatda, konkret korxonada va tashkilotda mehnat samaradorligini yuksaltirish orqali innovatsion texnologiyalarni butun iqtisodiyot bo'ylab yoyilishini ta'minlash mumkin bo'ladi.

Dissertant mulohazalariga ko'ra, mehnat samaradorligining oshirilishi iqtisodiy taraqqiyotga xizmat qiladigan barcha omillardan ratsional foydalanish imkoniyatlarini benihoya kengaytiradi. Mahsuldorlik, natijadorlik va foydalilik avvalo unga bo'lgan ehtiyojdan kelib chiqadi va samara darajasiga yaratilgan shart-sharoitlar, faoliyat ko'rsatayotgan xodimlar motivatsiyasi va malakasi o'z ta'sirini o'tkazadi. Mehnat samaradorligi o'zgarib turuvchi reallikdir, shu sababdan uning holati turli zamonaviy uslublar va usullar yordamida mudom o'rganib borilmog'i lozim. Bunday monitoring uning yuksalishi jarayonini muvofiqlashtirish imkonini beradi. Har qanday mamlakatda iqtisodiyotning uzluksiz ravnaqi eng avvalo jamiyat kishilarining foydali va natijador faoliyat ko'rsata boshlashidan turtki oladi. Chunki aynan ana shunday faoliyatgina taraqqiyotga eltuvchi omillarni faollashtiradi. Binobarin, iqtisodiy taraqqiyot sur'atlarini yuksaltirish, shu tariqa jahonning rivojlangan mamlakatlari qatoriga qo'shilish vazifasini o'z oldiga qo'ygan O'zbekiston sharoitida barcha sohalaridagi mehnatning samaradorligini oshirish iqtisodiy ravnaqning asosiy manbai sifatida qaralmog'i darkor.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi "**Mehnat samaradorligi mezonlarining ijtimoiy-falsafiy tahlili**" deb nomlanib, unda mehnat unumdorligi, tejamkorlik, ish vaqtdan oqilona foydalanish mehnatning samarasini ko'rsatuvchi asosiy mezonlar sifatida ochib berilgan. Shuningdek mehnat faoliyatining mahsuldorligi, natijadorligi va foydaliligiga salbiy ta'sir ko'rsatib turgan bir qator muammolar va ularga bir qator yechim tadqiq etilgan.

Dissertatsiyada mehnat samarasini aniqlashda qo'llaniladigan qator mezonlar tahlil qilingan. Tahlillar natijasida, mehnat samaradorligining eng asosiy mezonlari sifatida quyidagilar konstatatsiya qilinadi:

a) mehnat samarasi mehnat unumdorligiga, ya'ni uning miqdoriy natijalariga qarab aniqlanadi;

b) mehnat samarasi tejamkorlik darajasiga, ya'ni moddiy va moliyaviy resurslarning maqbul sarfiga qarab baholanadi;

v) mehnat samarasi ish vaqtdan oqilona foydalanish holatiga, ya'ni mehnat funksiyalarining bajarilishi sifatiga qarab belgilanadi.

Mehnatning samaradorligini aniqlash imkonini beradigan *birinchi mezon* – *mehnat unumdorligidir*. U mehnatning natijadorligi darajasini ifodalovchi tushuncha sifatida ta’riflanadi. Mehnat unumi nafaqat muayyan vaqt davomida ishlab chiqarilgan mahsulot miqdoriga, balki mahsulotni ishlab chiqarishga ketgan mehnat xarajatlariga, mahsulot savdosidan tushgan daromad miqdoriga qarab ham aniqlanadi⁶.

Iqtisodchi olimlar mehnat unumdorligi darajasi, uni oshirish yo’llari to’g’risida mulohaza yuritayotganda, “amaldagi mehnat unumdorligi”, “naqd mehnat unumdorligi”, “potensial mehnat unumdorligi” tushunchalarini qo’llaydilar. “Amaldagi mehnat unumdorligi” tushunchasi korxonaga yoki tarmoqdagi (umumjamiyat miqyosida ham) mehnatning unumini ifodalash imkonini beradi⁷. Naqd mehnat unumdorligi – barcha imkoniyatlar ishga solinganda mavjud sharoitlarda ishlab chiqarish mumkin bo’lgan mahsulot hajmini ko’rsatuvchi birlikdir. “Potensial mehnat unumdorligi” tushunchasiga keladigan bo’lsak, u iqtisodiy kibernetikada ijtimoiy taraqqiyotning bugungi davrida mavjud shart-sharoitlarga tayangan holda nazariy jihatdan qancha mahsulot ishlab chiqarish mumkinligini ifodalashda qo’llaniladi. Potensial mehnat samaradorligi ko’rsatkichi mehnat unumini qay hajmda oshirishdan umid qilish mumkinligini aniqlab beradi.

Dissertant fikricha, mustaqillik yillarida O’zbekistonda amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar jamiyatdagi mehnat unumdorligini oshirish imkoniyatlarini vujudga keltirdi. Aynan shu sababga ko’ra mamlakatda yalpi ichki mahsulot o’sa boshladi, xalq xo’jaligi va sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmlari kengaydi. Keyingi yillarda mamlakat Prezidenti tashabbusi bilan ishlab chiqilgan Harakatlar strategiyasi va Yangi O’zbekiston taraqqiyot strategiyasi doirasida amalga oshirilgan islohotlar mazkur omillar rivojiga tendensiyaviy tus berdi. Biroq bundan mehnat unumdorligini oshirish bo’yicha barcha choralar ko’rib bo’lindi, degan xulosa kelib chiqmaydi. Hanuzga qadar jamiyatda mehnat unumdorligini oshirishga xalal berayotgan qator muammolar saqlanib qolmoqda. Jumladan, ko’plab korxonaga va tashkilotlar moddiy-texnika bazasini rivojlantirish bilan bog’liq masalalar o’z yechimini kutib turibdi. Ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish natijasida yuzaga kelgan yangi holatlar, joylarda innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqarishga tatbiq etishning sust ketayotgani, ishlab chiqarish jarayonini tashkil qilish bilan bog’liq ayrim muammolar, xodimlar ma’lumoti va malakasining zamon talablaridan ortda qolayotgani, mehnatga haq to’lash miqdorining pastligi ham mehnat unumiga jiddiy ta’sir ko’rsatmoqda.

Mehnatning samaradorligini aniqlash imkonini beradigan *ikkinchi mezon* – *tejamkorlikdir*. Tejamkorlik – mehnat samaradorligini ko’rsatuvchi asosiy mezonlardan biri bo’lib, u mahsulot ishlab chiqarish yoki xizmat ko’rsatish uchun ketadigan iqtisodiy, moliyaviy, mehnat, boshqaruv resurslariga oqilona munosabatni ifodalovchi tushunchadir. Tejamkorlik asosan iqtisodiy o’sishning intensiv tipiga xos bo’lgan omildir.

⁶ Qarang: Abdullayeva D.K., Nurullayeva SH.T. Sanoat korxonalarida mehnat samaradorligini oshirish mexanizmini takomillashtirish zaruriyati // O’zbekiston statistika axborotnomasi. – Toshkent, 2023. - №4. – B.4-5.

⁷ Qarang: Рофе А.И. Экономика труда. - Москва: Кнорус, 2010. - С.84

Ekstensiv iqtisodiy o'sishga urg'u berilgan mamlakatlarda mazkur omilga jiddiy e'tibor qaratilmaydi. Chunki bunday yurtlarda iqtisodiy o'sish zaruriy resurslarning miqdoriga ta'sir ko'rsatadigan omillar (ko'p miqdordagi ishchi kuchidan foydalanish, yangi korxonalar qurish, ko'p miqdordagi jihoz va uskunalarni ishlatish, yangi yerlarni muomalaga kiritish, yangi konlar ochish, tog'-kon ishlab chiqarish hajmini oshirish, resurslar miqdorini ko'paytirish imkonini beradigan tashqi savdo va sh.k.) evaziga ta'minlanadi. Bunday sharoitda ishchilarning malakasi va ular mehnati unumdorligi, asbob-uskunalar sifati va texnologiya o'zgarmasdan qolaveradi⁸. Zaruriy resurslardan oqilona foydalanish, ularni tejab-tergash masalasi ham soyada qolib ketadi. Xuddi shuning uchun rivojlangan mamlakatlarda intensiv iqtisodiy o'sishni ta'minlaydigan omillarga e'tibor berilmoqda. Bu yurtlarda iqtisodiy, moliyaviy, mehnat va boshqaruv resurslaridan tejab-tergab foydalanish tendensiyaviy tus olgan.

O'zbekistonda mustaqillik yillarida ekstensiv iqtisodiyotdan intensiv iqtisodiyotga o'tish borasida ilk qadamlar qo'yildi. Shu bois intensiv iqtisodiy o'sish omillaridan foydalanish, jumladan mamlakatdagi iqtisodiy, moliyaviy, mehnat va boshqaruv resurslarini oqilona sarflash choralari ko'rila boshlandi. Keyingi yillarda tejamkorlik iqtisodiy o'sishning muhim omillaridan biri ekanligi bot-bot takrorlanmoqda. Iqtisodiy resurslar isrofgarchiligiga yo'l qo'ygan korxonalar va tashkilotlar qattiq tanqid ostiga olinmoqda. Davlat va mahalliy byudjetlarning daromad bazasini kengaytirishga intilinmoqda. Mehnat resurslarini yuksaltirish va mehnat bozori talablariga moslashtirish, ulardan oqilona foydalanish borasida ayniqsa ko'zga ko'rinarli choralar amalga oshirilmoqda. Ko'plab korxonalarda zamonaviy korporativ boshqaruv tamoyillari joriy etilmoqda⁹.

Shunga qaramasdan, tejamkorlik mamlakatda faoliyat olib borayotgan barcha korxonalar va tashkilotlarning barqaror atributiga aylanib ulgurgani yo'q. Bunga jiddiy xalal berib turgan muammolar mavjud. Masalan, respublikadagi aksar mehnat jamoalarida iqtisodiy resurslarni tejash bilan bog'liq strategik maqsadlar aniqlanmagani, moliyaviy resurslarni monitoring qilishdagi muammolar, ko'plab korxonalar va tashkilotlardagi tarkibiy tuzilmalarning ular funksiyalariga, bozor iqtisodiyoti talablariga nomutanosibliigi resurslarning ortiqcha isrofgarchiligiga sabab bo'lmoqda.

Mehnat samaradorligining *uchinchi mezon* ish vaqtidan oqilona foydalanish bilan bog'liq. Barcha mamlakatlarning mehnat qonunchiligida ish vaqti o'xshash tarzda tavsiflanadi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksida shunday deyiladi: "Xodim ichki mehnat tartib qoidalariga, smenalarga bo'linib ishlash (ish) jadvaliga, boshqa ichki hujjatlarga yoki mehnat shartnomasi shartlariga muvofiq mehnat majburiyatlarini qaysi vaqt mobaynida bajarishi kerak bo'lsa, o'sha vaqt ish vaqtidir"¹⁰. Ish vaqtidan oqilona foydalanish deganda ish soatlarining ishlab chiqarish ehtiyojlariga mutanosib ravishda taqsimlanishi, aniq

⁸ Подшибякина Е. В., Овчаров А. В. Типы и факторы экономического роста. // Успехи в химии и химической технологии. – Москва, 2009, - №11. – С.96

⁹ Qarang: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori. "2021-2025 yillarda davlat ishtirokidagi korxonalarini boshqarish va isloh qilish Strategiyasini tasdiqlash to'g'risida". // lex.uz/docs/ 5348948.

¹⁰ O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi. // lex.uz/uz/docs/6257288#6262086.

natijalar sari yo‘naltirilishi, behuda yo‘qotishlarning oldi olinishi nazarda tutiladi. Mehnat jamoasida ish vaqtdan oqilona foydalanishning ahamiyati benihoya katta. Buning nafaqat iqtisodiy, balki ma‘naviy-ruhiy va reputatsion oqibatlar ham mavjud.

Ish vaqtining oqilona kechishi maqsadga muvofiq say-harakatlar mahsulidir. Undan ratsional foydalanish uchun qator omillarga e‘tibor berish talab qilinadi. Xususan, buning uchun mehnat qonunchiligida o‘rnatilgan ish vaqti davomiyligiga qat‘iy amal qilmoq, korxonada iqtisodiy faoliyati xususiyatlariga mutanosib bo‘lgan ish rejimini tashkil qilmoq, aniq va bajariluvchan maqsadlar qo‘ymoq, vazifalar ijrosini to‘g‘ri rejalashtirmoq va taqsimlamoq, ish vaqtidagi yo‘qotishlarning oldini olmoq, dam olish vaqtini to‘g‘ri tashkil etmoq, ish vaqtini samarali boshqarib bormoq kerak.

Dissertant mulohazalariga ko‘ra, yangi iqtisodiy shart-sharoitlarni, mehnat bozorida yangi tendensiyalarni, ish beruvchi va xodim o‘rtasidagi munosabatlardagi yangi jihatlarni, ish vaqtdan oqilona foydalanishni ta‘minlash zaruriyatini inobatga olgan holda mamlakatning yangi Mehnat kodeksi qabul qilindi. Yangi kodeks ish vaqti mazmunini sezilarli ravishda boyitdi. Biroq ish vaqti mazmuni va shaklidagi ijobiy o‘zgarishlar bilan bir qatorda undan unumli foydalanishga mone‘lik qilayotgan muammolar ham mavjud. Masalan, joylarda ish vaqti normalariga amal qilmaslik hollarining hanuz uchrab turishi, ish vaqtidagi yo‘qotishlarning kattaligi, diletant rahbarlarning ko‘paygani ish vaqtining nooqilona sarflanishiga sabab bo‘moqda. Kelajakda jamiyat a‘zolarining turli ish joylaridagi faoliyati sifati va nisbatini yaxshilash uchun *unumdorlik, tejamkorlik va ish vaqtdan oqilona foydalanish* mezonlari rivojiga to‘sqinlik qilayotgan muammolar aniqlanmog‘i, tasniflanmog‘i hamda hal qilish yo‘llari ishlab chiqilmog‘i dardkor.

